



## IQTISODIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA FAROBIY ILMIY MEROSINING O'RNI

*Mirzaakbarov Abdurasul Mirzaakbarovich*

*NamDPI "Boshlang'ich ta'lif innovatsiyalari" kafedrasini o'qituvchisi*

*Email: [abdurasulmirzaakbarov95@gmail.com](mailto:abdurasulmirzaakbarov95@gmail.com)*

*Hikmatova Iroda Nizomjon qizi*

*Namangan Davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti*

*Email: [irodahikmatova727@gmail.com](mailto:irodahikmatova727@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda Farobiy ilmiy merosining o'rni tahlil qilinadi. Bugungi ta'lif va texnologiyalar taraqqiy etayotgan davrda iqtisod boshqa sohalar orasida o'z o'rnini yanada mustahkamlamoqda. Shu boisdan yosh avlodda, bolalik davridanoq iqtisodiy tarbiyani shakllantirib borishimiz zarur. Shu o'rinda esa Farobiyning bu sohadagi fikrlari biz uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada Farobiyning iqtisodiy qarashlari ham muhokama qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Abu Nasr Al-Farobi, iqtisodiy tarbiya, ijtimoiy hayot, iqtisodiy munosabat, ijtimoiy mas'uliyat, innovatsiya, integratsiya, iqtisodiy tanazzul, mablag' yig'ish, mulkiy qonunlar, huquqiy tarbiya, mablag'ni taqsimlash, mulkiy tarbiya.

## THE ROLE OF FARABI'S SCIENTIFIC HERITAGE IN FORMING ECONOMIC EDUCATION

**Abstract:** This article analyzes the role of Farabi's scientific heritage in the formation of economic education. In today's era of advancing education and technology, economics is further solidifying its place among other fields. We need to instill economic education in the younger generation from their childhood. In this regard, the thoughts of Farabi in this field serve as an important source for us. This article also discusses Farabi's economic views.

**Key words:** Abu Nasr Al-Farabi, economic education, social life, economic relations, social responsibility, innovation, integration, economic decline, capital raising, property laws, legal education, fund distribution, property education.

## РОЛЬ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ ФАРАБИ В ФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль научного наследия Фараби в формировании экономического воспитания. Сегодня, в эпоху развития образования и технологий, экономика становится все более прочной среди других сфер. Мы должны формировать экономическое воспитание у молодежи с самого детства. Эта мысль Фароби в данной области служит для нас важным источником. Также в статье обсуждаются экономические взгляды аль-Фароби.



**Ключевые слова:** Абу Наср Фароби, экономическое воспитание, социальная жизнь, экономические отношения, социальная ответственность, инновация, интеграция, экономический спад, сбор средств, имущественные законы, правовое воспитание, распределение средств, имущественное воспитание.

## KIRISH

Mamlakatimiz rahbari 2020-yil 29-sentabrdagi O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan nutqida buyuk allomalar, shu jumladan, Al-Farobiy kabi mutafakkirlarning ilmiy-ma'rifiy merosini chuqur o'rganish va nashr etish zarurligini ta'kidlagan. U bu merosning yoshlarni tarbiyalashda va zamonaviy ta'lif tizimini rivojlantirishda muhim ekanligini aytgan edi. Bu iqtisodiy tarbiyaga ham bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki Farobiyning falsafiy va ijtimoiy qarashlari iqtisodiy ong va mas'uliyatni shakllantirishda muhimdir[1]. Iqtisodiy tarbiya-insonlarga iqtisodiy qarashlar, nazariyalar, prinsiplar va sistemalarni o'rgatish jarayoni. Uning maqsadi o'quvchilarga o'zlarining shaxsiy hayot yo'llarida, jamiyatda va ish joylarida iqtisodiy qarorlarni yaratish va mahalliy, hududiy va dunyoviy bosqichlarda kengroq iqtisodiy muammolarni tushunish va hal qilish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdir. Bu jarayonda tarixiy shaxslar va ularning ilmiy meroslarining o'rni beqiyosdir. Shular jumlasidan, sharq mutafakkiri, faylasuf va olimi Abu Nasr Farobiy o'zining falsafiy va ilmiy merosida iqtisodiyotning jamiyat ravnaqiga bo'lgan yondashuvini taqdim etgan. Farobiyning fikrlari va go'yalarini bugungi kunda ham iqtisodiy ongni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Sharipov Z.F Farobiyning "Fozil odamlar shahri" asarini tahlil qilgan holda, u iqtisodiy resurslarning adolatli taqsimlanishini ijtimoiy barqarorlikning asosiy omillaridan biri deb bilganini ta'kidlaydi. Olimning fikriga ko'ra, Farobiy iqtisodiy tarbiyani huquqiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga chaqiradi [2]. Muslimov N.M "Iqtisodiy tarbiya: nazariya va amaliyot" asarida iqtisodiy bilimlar bolalikdan boshlab shakllanishi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, yosh avlodda iqtisodiy ong va mas'uliyat hissi shakllanishi uchun tarixiy va madaniy meros, xususan, Farobiy kabi mutafakkirlarning g'oyalari muhim manba



bo'la oladi [3]. Rustamov Sh.F Farobiyning falsafiy qarashlarini tahlil qilarkan, u nafaqat ijtimoiy-falsafiy, balki iqtisodiy tarbiyada ham uning g'oyalari dolzarb ekanligini qayd etadi. Farobiy ijtimoiy hayotda iqtisodning markaziy o'rinni egallashini aytib, har bir fuqaro iqtisodiy qarorlar qabul qilishda ongli, bilimli bo'lishi lozimligini takidlaydi [4].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI


Farobiy iqtisodiy tarbiyani shakllantirish uchun bir nechta muhim g'oyalarni taklif etgan.

Birinchidan, u iqtisodiy bilimning qanchalik muhimligini ta'kidlagan. Uning fikricha, iqtisodiy bilimlar nafaqat tadbirkorlar, balki har bir fuqaro uchun muhimdir. Bu esa jamiyatning iqtisodiy barqarorligini va rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, Farobiy o'z asarlarida adolatli iqtisodiy munosabatlar va ijtimoiy mas'uliyatning qanchalik ahamiyatli ekanligini ta'kidlaydi. U iqtisodiy faoliyatda adolatning o'rni muhim ekanligini, buning natijasida jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlay olish mumkinligini aytadi.

Uchinchidan, Farobiy iqtisodiy rivojlanishda innovatsiya va integratsiyaning o'rni qanchalar beqiyos ekanligini ham ko'rsatadi. U innovatsiyani bilim va ma'rifatning rivojlanishi deb biladi. Insonlar innovatsiya orqali yangicha imkoniyat va resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Integratsiya esa Farobiy uchun insonlarning bir-biriga yaqinlashishi, turli fikrlar va g'oyalar o'rtasida dialog o'rnatish jarayonidir. Integratsiya orqali turli bilimlar va madaniyatlar birlashadi.

Zamonaviy ta'lif tizimlarida iqtisodiy nazariyalar va amaliy ko'nikmalarni o'rganish, innovatsion fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar sonini ortishiga sabab bo'lmoqda. Bundan ko'rinish turibdiki, yosh avlodga iqtisodiy bilimlarni berish davomida faqatgina nazariya bilan cheklanib qolmasdan, balki amaliyot ham birgalikda olib borilishi kerak. Shu bilan birga, Abu Nasr Farobiy insonlar o'z mablag'larini qanday sarflashni bilishi, pul sarflashda qizg'onchiqlik qilish xasislikka olib kelishi va pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboslikka yetaklashini ta'kidlaydi. Suningdek, insonning ilm-ma'rifatli bo'lishi, kasb hunarni mukammal egallashi, halol mehnat qilish orqali inson iqtisodiy tanazzuldan chiqishi



va baxt-saodatga erishishi mumkunligini ham bayon etgan. Umumiy qilib olganda, Farobiyning iqtisodiy qarashlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- adolatli iqtisodiyot haqidagi tasavvurlar;
- davlatning iqtisodiyotdagi roli;
- mehnat va mulk haqida qarashlar;
- boylik va kambag'allik masalasi.

### TAHLILLAR VA NATIJALAR

Farobiyning iqtisodiy qarashlari nafaqat o'sha davrda, balki zamonaviy iqtisodiy ta'limotlar rivojida ham muhim manba bo'lib kelmoqda. Uning fikrlari tomonidan berilgan dalillar bugungi kunda ham bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda muhimdir.

Farobiy iqtisodiy va boshqa ijtimoiy qarashlari Arastu va Aflatun asarlarini tushuntirishga qaratilgan bir qancha asarlarida bayon etilgan, jumladan, uning iqtisodiy dunyoqarashi "Fozil odamlar shahri" asarida o'z ifodasini topgan. Farobiy ushbu asarida mulkka doir quyidagi fikrni aytib o'tadi: "Mulkka ega bo'lish yomon odat emas, qashshoqlikda yashagandan ko'ra, badavlat yashamoq afzaldir"[5]. Lekin u bu yerda mulkni befoyda narsalarga sarflamaslik kerakligini va farzandlarimizga bu tushunchalarini bolalikning ilk bosqichidanoq uqtirib borishimiz kerakligini ham aytib o'tadi. Farobiy ushbu fikriga yana qo'shimcha tarzda "Odamlarga, avlodga zarar keltirmaydigan mol-mulk orttirish foydali ishdir; bunda qonunlar yordamida ruh va badanni e'zozlashiga sazovor qiladigan tarbiya muhim ahamiyatga ega. Faqat boshqalar uchun zarar keltiradigan boylik to'plash, mol-mulkka ega bo'lish yomon odatdir". Haqiqatdan ham inson hayoti davomida mol-mulk to'lashi kerak, faqat u mulkni qonuniy va diniy jihatdan mos keladigan yo'ldan topishi muhimdir. Mana shunday hollarda bu mulk u inson uchun uzoq muddat yaxshi ishlarga xizmat qiladi. Mutafakkir o'z asarlarida farzandni mulkiy qonunlar asosida tarbiyalash masalasiga ham alohida e'tibor beradi. Ayniqsa, huquqiy tarbiya ijtimoiy-iqtisodiy hayotda g'oyat muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi. Huquqiy tarbiya tushunchasiga kelsak, u faqat o'zini emas, balki boshqalarni ham o'ylab yashash va ishslashga xizmat qiladi, mulkni va manbalarni to'g'ri tasarruf etish, undan yaxshi natijalar olishga da'vat etadi. Ushbu o'rinda shuni aytish joizki, mamlakatimizning Ta'lif to'g'risidagi




Dasturi va Qonunida huquqiy va mulkiy tarbiyaga katta o'rinni ajratilgan. U yerda bolalarni o'z mulkiga doir huquqlari bayon etigan. Olim "Fozil odamlar shahri" asarida mulkni saqlash haqida ham aytib o'tadi. "Mulk orttirishda unchalik xavf yo'q, ammo uni ehtiyot qilib saqlash kerak. Agar boshqa birovlar hisobiga mulk orttirganlar jazolanmasalar, u holda shahar aholisidan insof va shuhurat yo'qoladi. Mulkni ehtiyot qilib saqlab, o'z ehtijoji uchun ishlatsa, bu yomon ish hisoblanmaydi". Chindan ham qonuniy yo'llar bilan mulk orttirish bir masalayu, uni o'zi va jamiyat uchun samarali sarflash boshqa masala, ya'ni mulkka ega bo'lgan shaxs mablag'larini to'g'ri taqsimlay olmasa, me'yori bilan harajat qilmasa har qanday boylik ham tugab bitadi. Farobiq qarashlarida taqsimot masalasi ham juda keng usulda talqin qilinadi. U jamiyat va odamlar yo'lidagi mulk va noz-ne'matlarni to'g'ri taqsimlash davlat qurilishida asosiy masalalardir, degan fikrni bildiradi. Shunday qilib, jamiyat hayotida eng muhim muammolardan biri mulkni to'g'ri taqsimlanishidir va bu ish puxtalik va adolatlilik bilan qilinishi lozim.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda Farobiq ilmiy merosi iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda muhim kasbga ega. Uning fikrlari zamonaviy iqtisodiy tizimlarda inson xulqi, ijtimoiy adolat va ta'lif jarayonining ahamiyatini oshirish uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Farobiq o'z asarlarida keltirgan fikrlar va tamoyillar, bugungi kunda iqtisodiy tarbiya jarayonini yanada samarali tashkil etishda muhim rol o'ynamoqda. Uning ilmiy merosi yordamida biz yosh avlodga iqtisodiyot sohasida to'g'ri yo'nalish berishimiz mumkin. Shuningdek Farobiq o'zining teran bilimlari va hozirda innovatsiya uchun hissa qo'shayotgan g'oyalari bilan nafaqat arab-falsafasiga, balki jahon ilm-faniga ham katta hissa qo'shgan shaxsdir. Shuning uchun ham biz yoshlar Farobiq ilmiy merosini yanada chuqurroq o'rganishimiz va ularni amaliyatga tadbiq eta olishim lozim. Bu yo'l bilan biz ajdodlarimiz merosini saqlab qolgan bo'lamic.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Prezident Mirziyoyev 2020-yil 29-sentabrdagi O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan nutqidan.
2. Sharipov Z.F. Farobiq va uning siyosiy-iqtisodiy qarashlari // "Iqtisodiyot va ta'lif" jurnali. – 2021. – №4. – B. 45–49.



3. Muslimov N.M. Iqtisodiy tarbiya: nazariya va amaliyat. – Toshkent: "O'qituvchi", 2018. – 140 b.
4. Rustamov Sh.F. Farobiy falsafasi va uning hozirgi davrdagi ahamiyati // Falsafa ilmida yangi qarashlar. – Toshkent: "Fan", 2019. – B. 22–30.
5. Аль-Фараби. Град добродетельных (Фозил одамлар шахри). – М.: Наука, 1975. – 352 с.